

**“Navoiyuran” DKda 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish
sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
HISOBOT**

“Navoiyuran” DKda 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirildi.

Hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturida ko‘rsatilgan tadbirlar belgilangan muddatlarda amalga oshirilgan. Muddati o‘tgan yoki bajarilmagan tadbirlar mavjud emas.

Bundan tashkari, korxonaning bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar doimiy ravishda milliy mehnat tizimi orkali bandlikka ko‘maklashish markaziga yuborilgan. Hisobot davrida 723 nafar fuqaro turli lavozimlarga ishga qabul qilingan. Ishga olingan xodimlar ochiq tanlov va test sinovlari asosida qabul kilingan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha “Navoiyuran” DKda quyidagi ichki me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan:

Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati;

Xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti;

Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom;

Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy hatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti;

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yuriqnoma;

Kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma;

Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti;

Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom;

Xodimlarning korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglament;

Odob-axloq Kodeksi;

Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risida;

Komplayens xizmati faoliyati to‘g‘risidagi Nizom.

Ushbu idoraviy hujjatlar belgilangan tartibda korxonaning rasmiy veb saytiga joylashtirilgan.

Shuningdek, **ISO 37001:2016** xalqaro standarti talablari asosida korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti va **ISO 37301:2021** talablari asosida Komplayens menejment tizimlari hujjatlarini ishlab chiqish va joriy etish ishlari olib borilmoqda.

“Navoiyuran” davlat korxonada davlat xaridlari sohasida nazoratni amalga oshirish maqsadida komplayens xizmati tomonidan 2024-yilning 4-choragida 125 ta kontragentlar o‘rganilib, xulosalar taqdim etildi.

Shuningdek, 2024-yilda 68 ta ichki idoraviy hujjatlar loyihasi korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi. Korrupsiya ekspertizasi natijalariga ko‘ra, 5 ta ichki idoraviy hujjatlar normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.

Korxonada manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar.

“Navoiyuran” davlat korxonasining 9459 nafar xodimi manfaatlar to‘qnashuvi holatlari bo‘yicha deklaratsiya to‘ldirgan bo‘lib, aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari bartaraf etilishi ta‘minlangan.

Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta‘sir choralari.

“Navoiyuran” DK mas‘ul xodimi A.B. fuqaro M.M.ni ishga kiritishni va‘da qilib, 3000 AQSh dollari olgan. Holat yuzasidan belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o‘tkazilib, materiallar prokuraturaga yuborilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.

Korxonada xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik prinsipini shakllantirish maqsadida o‘tkazilgan profilaktik tadbirlar va bu sohada tizim korxonalarini bilan hamkorlik qilish hamda malakasini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar.

“Navoiyuran” DKda 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tayyorlangan “Dastur”ga muvofiq “Korxonaning korrupsiyaga qarshi siyosati”, “Odob-axloq kodeksi”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom” va “Navoiyuran” DKda “Sovg‘alar berish va olish, biznes-tadbirlarni tashkil etish va ishtirok etish, korxonada xarajatlarini amalga oshirish buyicha Siyosati” talablari asosida 20 dan ortiq tushuntirish-profilaktik tadbirlar o‘tkazildi.

Shuningdek, 2024-yilning noyabr-dekabr oylarida “Navoiyuran” davlat korxonasining tegishli buyrug‘iga asosan “9-dekabr — Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan korxonada boshqarmasi hamda tarkibiy

bo'linmalarida Aksilkorrupsiya oyligi doirasida belgilangan tadbirlarni yuksak saviyada o'tkazildi.

Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan 2024-yilning 4-dekabr kuni "Korrupsiya - taraqqiyot kushandasi" mavzusida "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri o'tkazildi.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash xamda ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik sohasida amalga oshirilgan ishlar.

"Navoiyuran" DK telegram kanalida korrupsiyaga qarshi kurashish va ushbu yo'nalishdagi ichki me'yoriy hujjatlar joylashtirilib, tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar doimiy yoritib borilmokda. Jumladan, 2024-yilda korxonada tomonidan rasmiy veb-sayt, feysbuk, instagram va telegram kanallari orqali 15 ta sohaga oid profilaktika ko'rinishidagi materiallar joylashtirilgan.

Korxonada aniqlangan korrupsiya holatlari haqida xabar berish uchun ishonch telefoni, veb sayt, elektron pochta, telegram bot ishga tushirilgan. Mazkur aloqa kanallari orqali korrupsion holat bo'yicha murojaat yuborish va aloqa ma'lumotlarini olish imkoniyati yaratilgan bo'lib, har bir yuborilgan murojaat ro'yxatga olinishi xamda murojaatchini xabardor kilib turish imkoniyati mavjud.